



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA SAVOD O'RGATISHDA O'QISH DARSLARINI AHAMIYATI

Ortiqova D.M.

Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi

Tayanch so'zlar: o'qish, savod, "Alifbe", ona tili, savod o'rgatish, nutq, harf, savodxonlik.

Ключевые слова: чтение, грамотность, «Азбука», родной язык, обучение грамоте, речь, письмо, грамотность.

Key words: reading, literacy, «Alphabet», mother tongue, teaching literacy, speech, letter, literacy.

Ma'lumki, savod o'rgatish jarayonidagi o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish, bilimini boyitish, tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o'stirishda ham bu davr mas'uliyatligi bilan alohida o'rin tutadi. Tayyorgarlik davri o'qishga o'rgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda o'zgarar nutqini eshitish, diqqatni to'plash, til birliklarini (tovush, bo'g'in, so'z, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllantiriladi. Bular o'quvchilarning o'qishni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradi. O'qishga o'rgatish uchun, avvalo, o'quvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo'g'indan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi.

Harf bilan tanishtirish bir necha xil yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin:

1. Mazmunli rasm yuzasidan savol-javob usuli bilan bog'lanishli hikoya tuzdiriladi. Undan kerakli gap, so'ng kerakli so'z ajratib olinadi, so'ngra so'z ustida yuqoridagi kabi tahlil ishlari uyushtiriladi.

2. So'z asos qilinib, analitik mashqlar yordamida o'rganiladigan tovush ajratib olinadi. Masalan: oy. O'qituvchi oy rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning nomini so'zni aytadi. O'qituvchi o tovushini cho'zib (o-o-o-y) aytadi va qaysi tovushni cho'zib aytayotganini o'quvchilardan so'raydi. O'quvchilar o tovushini aytgach,



uning xususiyatlari haqida savol-javob o'tkaziladi. O tovushli so'zlar o'ylab toptiriladi. Shundan so'ng o harfi kesma harfdan yoki rasmlı alifbodan ko'rsatiladi. Bunda o harfining shaklini esda olib qolishlariga alohida e'tibor qaratiladi.

3. O'rganilgan harflar ichiga bugun o'rganiladigan harf aralashtirib qo'yiladi, bolalar uning ichidan notanish harfni ajratadilar, so'ng o'qituvchi bu harf ifodalaydigan tovushni aytadi. "Alifbe" birinchi o'quv kitobi bo'lib ,boshlang'ich sinf o'quvchilari savod o'rganishi uchun asosiy omil desak bo'ladi. Asosan "Alifbe" kitobini ishlab chiqishda didaktikaning umumiy mezonlariga: g'oyaviylik, bayonning ilmiyligi ,tushunarlıligi, ko'rsatmalilik, onglielik, o'quv materialining hayot bilan bevosita aloqadorligi ,bolalar yoshi va dunyoqarashi ,o'ziga xos ruhiy xususiyatlarning hisobga olinishi hamda "Alifbe" darsligi tuzilishining xususiy mezonlariga asoslaniladi ."Alifbe" darsligi, asosan, quyidagi ilmiy-pedagogik tamoyillar asosida tuziladi:

1. "Alifbe" materiali bolalarda ongli, to'g'ri, bo'g'inlab o'qish va to'g'ri yozish malakalarini hosil qilishga yordam berish kerak.

2. O'qish uchun berilgan matnlar ,rasmlar bolalar saviyasiga mos bo'lishi ,shu bilan birga , ularning tafakkuri va nutqini o'stirishi lozim.

3. "Alifbe" tuzilishida tovush-harflarning ko'p ishlatilishi tamoyilidan foydalanish kerak.

4. "Alifbe" dagi harflarni joylashtirishga va ular qatnashgan so'zlarni tanlashga alohida e'tibor qaratish lozim.

5. "Alifbe" dagi materiallarni hajmi savod o'rgatishga ajratilgan vaqtga mos bo'lishi zarur.

6. "Alifbe" ning harfi, terilishi, qog'ozi, rasmlarining bo'yoqlari gigiyenik talablarga javob berishi lozim.

7. "Alifbe" ning tashqi ko'rinishi chiroyli, bolalar diqqatini o'ziga tortadigan bo'lishi kerak.

"Alifbe" ga qo'yilgan barcha talab va tamoyillarni faqat "Alifbe" darsligini tuzuvchilar emas, balki u bilan ishlaydigan o'qituvchilar ham bilishi zarur." O'qituvchi", avvalo , "Alifbe" ning mazmunini , tuzilishini yaxshi bilib olib, undagi materialdan pedagogik jarayonni tashkil etish (alohida bir dars rejasini tuzish, darslar tizimini belgilash, alifbe materialiga qo'shimcha material tanlash, ba'zi materiallarni qayta ko'rib chiqish) da foydalanadi. Shundagina o'qituvchi kitobga ijodiy yondashib, undan metodika talablari va o'zining pedagogik tajribasidan kelib chiqib foydalangan bo'ladi. O'quvchilar tovushning xususiyatlarini aytadilar. Shu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan, rasmlı alifbodan ko'rsatadilar. Shu tariqa tovush-harf bilan tanishtirilgach, o'qishga o'rgatish ustida ishlanadi. O'qishga o'rgatishda bo'g'in asos qilib olinadi. Buning uchun o'qituvchida bo'g'in jadvali bo'lishi lozim. Bo'g'in jadvali asosida o'qish namunasi ko'rsatiladi,



yordamida hosil qilinishi mumkin. Masalan, Qishda qushlar qayerga uchib keladi? (harf terish matosida: Issiq o'lkalarga uchib ketadi). Mana shu kabi tayyorlov mashg'ulotlari o'qishning yuqori darajada ongli bo'lishini ta'minlaydi. Ongli o'qishni ifodali o'qishdan ajratib bo'lmaydi. Ammo analitik o'qishning birinchi bosqichida ifodali o'qish mumkin emas, chunki bolalar so'zda urg'uli bo'g'inni ajrata olmaydilar, tugallangan intonatsiyani, so'roq ohangini, hatto, orfoepik to'g'ri o'qishni ham bilmaydilar. Shuning uchun analitik o'qish bosqichida so'zni yaxlit, orfoepik qayta o'qish tavsiya qilinadi. Bunday qayta o'qish to'g'ri intonatsiyaga, ifodalilikka rioya qilib o'qishga o'rgatibgina qolmay, o'qishning ongli bo'lishiga ham yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, asosan, savod o'rgatishning birinchi darslaridayoq o'quvchilarga tabaqalashtirib (differensial) yondashish (bunda o'quvchilarning o'qishga tayyorgarliklaridagi fikrlar hisobga olinadi) amalga oshiriladi. O'qishning ongliligini va ta'sirchanligini ta'minlash uchun matn mazmunini o'quvchilarning ko'rgan-kechirganlari, taassurotlari bilan bog'lash lozim. Shunda o'quvchida o'qishga, o'rganishga qiziqish ortadi. Ongli o'zlashtirishni amalga oshirishda lug'at ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. So'zlarning ma'nosi ustida to'xtalish, birinchidan, fikrni oydinlashtirsa, ikkinchi tomondan matnni tushunishga ham yordam beradi. She'r, tez aytish, topishm oq, qo'shiq, maqol, hikmatli so'zlardan o'qitish, yod oldirish ham o'quvchilarning o'qishga qiziqishini oshiradi, o'qish malakasini shakllantiradi, xotirasini mustahkamlaydi. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining uchdan ikki qismi o'qishni mashq qilishga ajratilishi lozim.

Adabiyotlar:

1. K. Qosimova, S. Fuzailov, A. N e'matova. Ona tili (2-sinf uchun darslik). - T.: Cho'lpon, 2005.
2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh, U., „Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi“. T. „Bayoz“, 2022. 57-bet.
3. Ma'qulova B., Nasriddinova D., . Kitobim - oftobim (1-sinf darslik qari o'qish kitobi). - T.: „O'qituvchi“ N M IU 2008.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga savod o'rgatishda o'qish va yozuv darslarini asosiy vazifalari va tamoyillari haqida so'z borgan. "Alifbe" darsliklarida harflar ketma-ket va tartibli tanishish tushunchalari yoritiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассказывается об основных задачах и принципах проведения уроков чтения и письма при обучении грамоте учащихся начальной школы. В учебниках «Алифбе» раскрыты понятия последовательного и упорядоченного ознакомления с буквами.

SUMMARY

This article talks about the main tasks and principles of reading and writing lessons in teaching literacy to elementary school students. The concepts of sequential and orderly familiarization of letters are covered in the «Alifbe» textbooks.